

**YOLLANMA ASKARLIK VA YOLLANMA QO'SHINLARNING RIVOJLANISH  
BOSQICHLARI**

**Abdumutlibov Abdulkay Ikromjon o'g'li**

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti magistri.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15237558>

*Annotatsiya.* Maqolada yollanma askarlikning asosiy rivojlanish bosqichlaridagi roli tahlil qilinadi. Tarixiy misollar shuni ko'rsatmoqdaki, birinchi bosqichda yollanma askarlik professional askarning paydo bo'lishiga, serjant va ofitser kadrlarning shakllanishiga, taktika, strategiya, harbiy san'at va harbiy qurilish amaliyotining rivojlanishiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatgan. Birinchi bosqich oxiriga kelib, yollanma askarlik XXI asrda armiyani to'ldirishning keng tarqalgan usullaridan biriga - shartnoma asosidagi xizmatga aylangani qayd etiladi. Yevropa davlatlari shakllanishining dastlabki davrida, bu davlatlarning byudjeti o'z muntazam qurolli kuchlarini saqlashga imkon bergunga qadar, yollanma armiyalar eng ko'p talab qilingan, degan xulosaga kelish mumkin. O'z taraqqiyotining ikkinchi bosqichida, XX asr o'rtalarida yollanma askarlikning ma'lum darajada qayta jonlanishi yuz bergani kuzatilgan. Bu holat asosan sovuq urush davri va mustamlakachilik tizimining parchalanishi jarayonida G'arb davlatlarining ta'sir doiralari kengaytirish uchun kurashi bilan bog'liq bo'lgan. Xususiy harbiy kompaniyalar (Private Military Companies) va maxsus xizmatlar o'rtaqidagi uzviy aloqa aynan shu davrda namoyon bo'lganini ta'kidlash mumkin. AQShning xususiy harbiy kompaniyalar ko'rinishidagi yollanma askarlikni yanada rivojlantirish va uni tashqi siyosat vositalaridan biriga aylantirishdagi yetakchi rolini ham ko'rib chiqamiz.

Maqolada Xususiy harbiy kompaniyalar sonining o'sish tendensiyalari va ularning yirik korporatsiyalarga birlashishi globallashuv jarayonlari hamda davlatning an'anaviy vazifalarining bir qismini xususiy biznesga o'tkazish jarayoni boshlanishi bilan o'zaro bog'liqligi ta'kidlangan. Xususiy harbiy kompaniyalarga ham davlatlar, ham transmilliy biznes tuzilmalari qiziqish bildirmoqda, degan xulosaga kelish mumkin. Xususiy harbiy kompaniyalar faoliyatini davlat tomonidan qonuniylashtirish natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan salbiy oqibatlar va ushbu salbiy oqibatlarning oldini olish uchun zarur shart-sharoitlar haqidagi xulosalar asoslab berilgan.

**Kalit so'zlar:** xususiy harbiy kompaniyalar, peltastlar, loxoslar, yollanish.

**STAGES OF DEVELOPMENT OF MERCENARY MILITARY SERVICE AND  
MERCENARY ARMIES**

**Abstract.** The article analyzes the role of the mercenary in the main stages of development. Historical examples show that at the first stage, mercenary service had a decisive influence on the emergence of professional soldiers, the formation of sergeant and officer personnel, and the development of tactics, strategy, military art, and military construction practice. By the end of the first stage, it is noted that mercenary service has become one of the most widespread methods of replenishing the army in the 21st century - contract service. It can be concluded that in the early period of the formation of European states, mercenary armies were most in demand, until the budgets of these states allowed them to maintain their regular armed forces. In the second stage of its development, in the middle of the 20th century, a certain revival of mercenary service was observed. This situation was mainly associated with the struggle of Western countries to expand their spheres of influence during the Cold War and the collapse of the colonial system. It can be noted that it was during this period that the close connection between private military companies (Private Military Companies) and special services was manifested. Let us also consider the leading role of the USA in the further development of mercenary service in the form of private military companies and its transformation into one of the instruments of foreign policy.

The article notes that the growth trends in the number of private military companies and their merger into large corporations are interconnected with the processes of globalization and the beginning of the process of transferring part of the traditional functions of the state to private business. It can be concluded that both states and transnational business structures are showing interest in private military companies. Conclusions about the possible negative consequences of the legalization of the activities of private military companies by the state and the necessary conditions for preventing these negative consequences are substantiated.

**Keywords:** private military companies, peltast, loxos, mercenarism.

## ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ НАЕМНОЙ ВОЙНЫ И НАЕМНЫХ АРМИЙ

**Аннотация.** В статье анализируется роль наемнической войны на основных этапах развития. Исторические примеры показывают, что на первом этапе наемническая служба оказала решающее влияние на становление профессионального солдата, формирование сержантских и офицерских кадров, развитие тактики, стратегии, военного искусства и практики военного строительства. К концу первого этапа отмечается, что наемническая служба стала одним из самых распространенных способов пополнения армии в XXI веке - контрактной службой. Можно сделать вывод,

что наемные армии были наиболее востребованы на ранних этапах становления европейских государств, до того, как бюджеты этих государств позволили им содержать собственные регулярные вооруженные силы. На втором этапе своего развития, в середине XX века, наблюдается некоторое возрождение наемнической войны.

Такая ситуация во многом была обусловлена борьбой западных стран за расширение сфер своего влияния в период холодной войны и крушением колониальной системы. Можно отметить, что именно в этот период проявилась тесная связь частных военных компаний со спецслужбами. Мы также рассмотрим ведущую роль Соединенных Штатов в дальнейшем развитии наемнической войны в форме частных военных компаний и превращении ее в инструмент внешней политики.

В статье подчеркивается, что тенденции роста числа частных военных компаний и их слияния в крупные корпорации коррелируют с процессами глобализации и началом процесса передачи части традиционных функций государства частному бизнесу. Можно сделать вывод, что интерес к частным военным компаниям проявляют как государства, так и транснациональные бизнес-структуры. Обоснованы выводы относительно возможных негативных последствий государственной легализации деятельности частных военных компаний и необходимых условий для предотвращения этих негативных последствий.

**Ключевые слова:** частные военные компании, пельтасты, локсо, вербовка.

**Kirish.** So‘nggi paytlarda axborot maydonida xususiy harbiy kompaniyalar (XHK) haqida ko‘proq so‘z yuritilmoqda. Hozirgi farazlarga ko‘ra, yollanma askarlikning bu shakli zamonaviy dunyoda tobora ommalashib bormoqda. Bunday tendensianing sabablari nimada va yollanma askarlikning mohiyati qanday o‘zgardi?

“Yollanma askarlar yoki yollanma qo‘sishinlar - davlat tomonidan boshqa mamlakatlarning fuqarolaridan yollangan askarlar”<sup>1</sup> tushunchasining ensiklopedik ta’rifi o‘zining qisqaligi bilan boshqa ta’riflardan ajralib turadi. Biroq, bu ta’rif “yollanma askar” va “yollanma qo‘sishin” tushunchalarini tenglashtiradi va bir narsa ekanligini anglatadi. 1977-yilgi Jeneva konvensiyalariga birinchi qo‘sishimcha Protokolda keltirilgan “yollanma askar”ning rasmiy ta’rifi ancha murakkab. Yollanma askarlarga quyidagi shaxslar kiradi:

- qurolli to‘qnashuvda qatnashish uchun mahalliy yoki chet elda maxsus yollangan;

<sup>1</sup> Энциклопедический словарь Брокгауза и Эфрона.

- harbiy harakatlarda bevosita ishtirok etadigan;
- asosan shaxsiy manfaat ko‘zlab harbiy harakatlarda ishtirok etadi va unga nizolashayotgan tomon yoki uning topshirig‘iga ko‘ra, ushbu tomonning qurolli kuchlari shaxsiy tarkibiga kiruvchilarga beriladigan mukofotdan sezilarli darajada yuqori bo‘lgan moddiy mukofot va’da qilingan;
- nizolashayotgan tomonning fuqarosi ham, doimiy nizolashayotgan tomon nazoratidagi hududda yashovchi shaxs ham emas;
- nizolashayotgan tomonning qurolli kuchlari shaxsiy tarkibiga kirmaydi;
- nizolashayotgan tomon bo‘lmagan davlat tomonidan o‘z qurolli kuchlari tarkibidagi shaxs sifatida vazifalarni bajarish uchun yuborilmagan.

Ushbu ta’rifda “yollanma qo‘shin” tushunchasi e’tibordan chetda qolgan, bu to‘g‘ri emas.

Masalan, XIV-XV asrlarda Shveysariya armiyasi boshqa Yevropa davlatlariga o‘z qo‘shinlarini yollash uchun taqdim etgan, ammo u chaqiruv asosida to‘ldirilgan, ya’ni “yollanma askar” va “yollanma qo‘shin” tushunchalari bir xil emas.

Yuqorida keltirilgan ikkita ta’rif, boshqa o‘xhash ta’riflar singari, amaliyotda uchraydigan yollanma askarlik turlariga to‘liq mos kelmasligi bilan ajralib turadi. Bu mutlaqo tabiiy holat. Yollanma askarlik qadim zamonlardan beri mavjud bo‘lib, u yoki bu shaklda hamon ma’lum darajada talab qilinmoqda.<sup>2</sup> Boshqa huquqiy me’yorlar kabi, xalqaro huquq nuqtayi nazaridan yollanma askarlikka har tomonlama ta’rif berish urinishlari ham hayotdagi o‘zgaruvchan vaziyatlardan orqada qolishga mahkumdir. Real hayot doimo huquqiy tizim rivojlanishidan ilgarilab ketadi.

Yollanma askarlikning rivojlanish tarixida quyidagi eng muhim bosqichlar ajratib ko‘rsatiladi:

- I bosqich - yollanma askarlikning harbiy xizmat instituti sifatida paydo bo‘lishi va rivojlanishi, harbiy tashkilot shakli sifatida (miloddan avvalgi II - III asrlar - XIX asr);
- II bosqich - yollanma askarlikning qurolli mojarolar davrida davlat siyosatining vositasi sifatida rivojlanishi (XX asr);
- III bosqich - yollanma askarlikning zamonaviy holati (XX asr oxiri - XXI asr boshi).

### Birinchi bosqichning ba’zi xususiyatlari

<sup>2</sup> Алибаева Г.А. История наемничества: криминологический аспект. Вестник Астраханского государственного технического университета, 2007. № 3.

Qadimgi Yunoniston tarixi bo'yicha mavjud ma'lumotlarni ko'rib chiqsak, bu davrda yollanma askarlik qo'shnlarni to'ldirish usuli sifatida vujudga kelgani haqida xulosa chiqarish mumkin. Ma'lumki, Qadimgi Yunoniston shahar-davlatlari dastlab qo'shin tuzishning fuqarolar lashkari usulidan foydalangan. Falanga shaklida tuzilgan bunday qo'shnlar qisqa muddatli to'qnashuvlarda va o'z shaharlaridan uncha uzoq bo'lman joylarda samarali harakat qilish imkonini bergen. Nazorat qilinadigan hududning kengayishi, jangchilarni tayyorlashga bo'lgan talablarning ortishi va davlatlarning moliyaviy imkoniyatlarining ko'payishi natijasida aholining eng kambag'al qatlamlari pul evaziga harbiy xizmatga jalg qilina boshlandi. Ular endi nafaqat o'z fuqarolari orasidan, balki chetdan ham yollangan professional askarlarga aylandi. Bundan tashqari, o'z aholisini mehnatdan ajratib qo'ymaslik maqsadga muvofiq deb topildi.

Professional askarlardan foydalanish yaxshi tayyorgarlikdan o'tgan va obro'li jangchilarining zabit bo'lishiga olib keldi. Bu zabitlar nafaqat jang qilish, balki jangni boshqarish, tinchlik vaqtida askarlarni o'qitish va qo'shnlar harakati taktikasini o'ylash qobiliyatiga ega edilar. Keyingi harbiy tarixda armiyaning zabitlar qatlami faqat yuqori tabaqalardan shakllantirilgan davrlar ham bo'lgan. Biroq bu harbiy san'at rivojlanishi uchun eng yaxshi davrlar emas edi. Aynan eng mohir askarlar zabit bo'lgan davrda Qadimgi Yunoniston harbiy san'atida muhim yangiliklar paydo bo'ldi: qo'shnlarni qurol turlari bo'yicha bo'lish, yengil piyodalarni (peltaslar) shakllantirish, tepalik joylarda falangalarni alohida kolonnalarga (loxoslarga) ajratish taktikasi, qanotlarda kuchlarni qayta taqsimlash (Epaminond taktikasi), falangalarning chuqur joylashuvi, shuningdek, jang maydonidan qochishning oldini olish uchun orqa tomonda to'siq otryadlarini qo'llash, kabilar. Shu davrda qo'shnlarning o'zini-o'zi ta'minlash tizimi o'rniغا intendantlik xizmati paydo bo'ldi. Yunon yollanma qo'shnlari samaradorligiga Kichik Osiyo noibi Kirning o'z ukasi, Fors shohi Artakserksga qarshi yurishi yorqin misol bo'ladi. Kir 13 ming tajribali yunon jangchisini yollagan edi.<sup>3</sup> Yurish paytida Kir halok bo'lgach, yunon yollanma askarlari "buyurtmachi"siz qolib, Fors podshohligi ichkarisidan janglar bilan Qora dengizga chiqdilar va oz yo'qotish bilan vatanlariga qaytdilar. Ana shu zaminda Aleksandr Makedonskiyning qo'shini va sarkardaning iste'dodi shakllandii. Makedonskiy tarixda bir shaxsda bir vaqtning o'zida jasur jangchi, mohir taktik va strateg iste'dodi namoyon bo'lgan sarkadalardan biridir. Yollanma askarlik Rim imperiyasida ham qabul qilingan edi. Dastlab Rim respublikasi o'z qo'shnlarini militsiya tamoyili asosida va faqat fuqarolaridan tuzgan.

<sup>3</sup> Свечин А.А. Эволюция военного искусства. От древности до Наполеоновских войн. М.: Вече. 2017. 416 с.

Zobitlar tarkibi tabaqalanish prinsipi bo'yicha shakllanib, yaxshi tayyorgarlik ko'rmagan va tashabbussiz edi. Armiya asosan qattiq intizomga va eng yaxshi askarlardan saralangan professional serjantlarga (senturionlarga) tayanardi. Bunday intizomli qo'shin Rimning butun Italiyani bo'ysundirishini ta'minladi. Biroq Gannibal armiyasi va uning turli taktik usullardan foydalanish mahoratiga duch kelganda, yaxshi serjantlar va zaif zabitlarga ega Rim armiyasi og'ir mag'lubiyatga uchradi. Rim imperiyasi armiyasi respublika armiyasidan farqli ravishda asosan yollanma askarlardan tashkil topgan edi. Rim imperiyasi Yevropadagi qo'shnilaridan ancha ilgarilab, harbiy qurilishning ko'p an'analarini yaratdi. Bu an'analar hozirgi kungacha dunyo armiyalarida ko'zga tashlanadi. Jumladan, yangi shakllarda saqlanib qolgan yollanma askarlik tajribasi ham shular jumlasidandir. Masalan, imperiya fuqarolaridan legionlar (soni jihatidan hozirgi diviziyaga yaqin) tuzilgan bo'lib, ular pretorian gvardiyasini tashkil etardi.

Viloyatlardagi legionlar yollanma askarlar bilan to'ldirilib, ulardan yordamchi kogortalar (soni jihatidan zamnaviy batalyonlarga yaqin) shakllantirilardi. Kogortada legioner-yollanma askarlar o'z tillarida so'zlashishlari mumkin edi, ammo senturionlar faqat imperiya fuqarolaridan iborat bo'lib, buyruq tili yagona - lotin tili edi. Ijtimoiy ta'minotning yagona tizimi - jamg'arma va dafn kassalari yollanma askarlarga ham taalluqli edi. Eng muhimi, ular Rim fuqarosi bo'lish imkoniyatiga ega edilar. Shuningdek, senturionlarning zabit bo'lish imkoniyati Rim armiyasiga yetarli miqdorda professional askarlar va mohir zabitlarga ega bo'lish imkonini berdi.

Rim imperiyasidagi yollanma askarlar imperianing rivojlanishiga sezilarli darajada hissa qo'shgan. "Yollanma qo'shnlarning keng tarqalishi, ularning harbiy harakatlarda faol va ko'pincha hal qiluvchi ishtiroki, bir tomondan, va antik davlatlar harbiy tashkilotining asosi hisoblangan fuqarolik lashkarining ahamiyati pasayishi, boshqa tomondan, yunon ijtimoiy-siyosiy tuzumi - yunon polisining inqirozi va Rim imperiyasining tanazzulida muhim rol o'ynadi" <sup>4</sup> degan fikrga qo'shilish qiyin. Rim imperiyasining qulashiga iqtisodiy ravnaqning asosiy manbalaridan biri bo'lgan keyingi bosqinchilik yurishlarining chegaralanishi sabab bo'lgan, degan fikr to'g'riroq ko'rindi. Yollanma askarlardan mohirona foydalanish Rim imperiyasining qulashini tezlashtirishdan ko'ra, uning gullab-yashnash davrini uzaytirgan.

Rim imperiyasi qulashi bilan davlat yana avvalgi feodalizm darajasiga qaytdi, Yevropada esa Qorong'u o'rta asrlar davri boshlandi.

<sup>4</sup> Алибаева Г.А. История наемничества: криминологический аспект. Вестник Астраханского государственного технического университета, 2007. № 3.

Yollanma askarlik ma'lum muddat talab kamayib ketdi. O'rta asrlar mayda va o'zaro urushlar bilan to'lib-toshgan edi. Salib yurishlari esa feodal Yevropaning harbiy jihatdan zaifligini yaqqol namoyon etdi, xolos.

Ma'lum ijtimoiy munosabatlar tufayli yollanma askarlarga bo'lgan ehtiyoj aynan Angliyada qayta paydo bo'ldi. Lenniklar harbiy xizmatga chaqirilishdan qochib, yerdan mahrum bo'lmaslik uchun qironga pul to'lab qutular, "qirol esa yig'ilgan mablag'ga harbiy ishni tark etmagan va yurishga jon-dili bilan boradigan ritsarlarni yollardi"<sup>5</sup> E'tiborli jihat shundaki, erkin tabaqalar vakillari (zodagonlar, ruhoniylar, ozod dehqonlar) yollanma askarlikka faol qarshilik ko'rsatib, qirolning ortib borayotgan hokimiyatini cheklashga intildilar. Ular hatto "Buyuk ozodlik xartiyasi"ga yollanma askarlikni taqiqlash bandini kiritishga erishdilar. "Biroq yollanma askarlik g'alaba qozondi, chunki u iqtisodiyotning yangi talablariga mos kelardi"<sup>6</sup>. Aynan yollanma askarlar inglizlarga Uelsni zabit etish imkonini berdi.

Qirollar hokimiyatini mustahkamlashning o'xhash jarayonlari Yevropaning boshqa qismlarida ham ro'y berdi. Moliyaviy ahvol o'z armiyasini tuzish uchun yetarli bo'lmasa-da, yollanma askarlar xizmatini to'lash uchun yetarli darajada mustahkamlangani sayin, yollanma askarlik butun Yevropa bo'ylab qayta jonlandi.

Biroq, o'z xizmatlariga buyurtmasiz qolgan yollanma askarlar jiddiy muammolar manbai bo'lib qoldi. "Yollanma askarlar iloji boricha uzoqroq jangovar harakatlar olib borishga intilardi, tinch davrlarda esa talonchilik va bosqinchilik bilan shug'ullanardi"<sup>7</sup>. Bu vaziyatda faqat Angliya yutib chiqdi. Ular o'z hududidan tashqarida harbiy harakatlar olib borib, keraksiz bo'lib qolgan yollanma askarlarni o'z mamlakatidan tashqarida qoldirdi. Harbiy xizmatdan bo'shatilgan yollanma askarlardan o'z ichidan chiqqan tajribali qo'mondonlar boshchiligidagi mustaqil tashkiliy tuzilmalar shakllana boshladi. Italiya hududida bunday professional yollanma askarlar guruhlari ba'zan shaharlarni egalladi, ularning boshliqlari (kondotyerlar) esa siyosiy hokimiyatni qo'lga kiritib, o'troq hayot tarziga o'tdi.

Ammo bunday harakatlar davlatlarning shakllanish jarayoniga zid bo'lib, ularga qarshi kurashish yo'llarini topish zarur edi. Masalan, fransuzlar "yaxshi" yollanma guruhlardan davlat armiyasining asoslarini shakllantirish va "yomon" yollanma guruhlarga qarshi kurashish uchun foydalanish yo'lini tutdi.

<sup>5</sup> Шерр О. С. Частные военные компании как инструмент внешней политики США // Россия и Америка в XXI веке. 2018. Выпуск 4 [Электронный ресурс]. Доступ для зарегистрированных пользователей.

<sup>6</sup> Свечин А.А. Эволюция военного искусства. От древности до Наполеоновских войн. М.: Вече. 2017.

<sup>7</sup> Шерр О. С. Частные военные компании как инструмент внешней политики США // Россия и Америка в XXI веке. 2018. Выпуск 4

XV-XVI asrlarda davlatlarning iqtisodiy salohiyati mustahkamlanib borgan sari, bu davlatlarning qo'shinlarini shakllantirish jarayoni yo miliitsiya tajribasini qayta tiklash asosida, yoki yollanma qo'shinlar salohiyatidan foydalanish asosida amalga oshirildi. Yollanma askarlar bo'linmalari tajribali jangchilardan iborat bo'lib, ularga taktik san'atni egallagan tajribali sarkardalar boshchilik qilardi. Feodal lashkarlari va professional jangchilar to'qnashuvida natija tabiiy edi. XVIII asrgacha Yevropadagi iqtisodiy sharoitlar faqat yollanma qo'shinlar asosida armiya tuzishga imkon began. Yagona istisno Shveytsariya bo'ldi. Qadimgi Yunoniston va Rim imperiyasi piyoda qo'shinlarining yo'qotilgan jangovar tajribasi Shveytsariyada qayta tiklandi.

XIV asrdayoq shveytsariyaliklar umumiy harbiy majburiyat asosida o'z armiyasini tuzishga majbur bo'lганлар. Xizmatga chaqirilgan shaharliklar va o'rmon kantonlari vakillaridan tashkil topgan Shveytsariya armiyasining o'ziga xos xususiyati qattiq intizom edi. O'rmon kantonlarining tog'liqlari yashash sharoitiga ko'ra qaroqchilik harakatlariga moyil edilar. Harbiy xizmat yaxshi o'lja olish imkoniyatini yaratgan va shu bilan jozibador bo'lган. Natijada, "chaqiruv e'lon qilinganda ko'ngillilar soni talab qilinganidan ko'proq bo'lardi"<sup>8</sup>. Shunga qaramay, intizomiy tartib shunday ediki, chaqiruvga kelmagan shveytsariyalikning uyi va butun xo'jaligi vayron qilinardi. Jangda o'zini tutish qoidalari ham qat'iy edi. Jangda chekinish o'lim bilan jazolanardi. Safdag'i qo'shni safdan chiqmoqchi bo'lган yoki dushmanni ayagan kishini o'ldirishi shart edi - asir olish taqiqlangan. Urush shveytsariyaliklar tomonidan dushman askarlarini ham, bosib olingen shaharlar va aholi punktlari aholisini ham yo'q qilish uchun olib borilardi. Shveytsariyaliklarning safarbarlik tayyorgarligi bo'yicha tajribasi ham noyob edi. Har bir kantondagi barcha fuqarolar ro'yxatga olingen bo'lib, harbiy xizmatga chaqirilgan taqdirda barcha zarur jihozlar va qurollarga ega bo'lishlari shart edi. Vaqt-i vaqt bilan tekshiruvlar o'tkazilib, fuqarolar to'liq jihozlangan holda kelishlari talab etilardi. Ko'rik paytida qurol ishlatish qobiliyati ham tekshirilardi. Natijada, shveytsariyaliklar miliitsiya tizimiga asoslanib, o'rtaschlarda Yevropaning hech qanday yollanma armiyasiga teng kela olmaydigan eng jangovar armiyani yaratishga muvaffaq bo'ldilar. Shveytsariyaning ba'zi kantonlari o'z qo'shinlarini boshqa davlatlarga (Fransiya, Gollandiya, Vatikan, Italiyaning ba'zi shaharlariga) yollash uchun taqdim etardilar. Biroq bular yollanma qo'shinlar edi, yollanma askarlar emas.

*Izoh. Shveytsariya Qurolli Kuchlari bugungi kunda ham sifat jihatidan eng ilg'or armiyalar qatorida bo'lib, umumiy harbiy majburiyatni, yuqori jangovar qobiliyatni va o'ziga xos safarbarlik tayyorgarligini saqlab qolmoqda.*

<sup>8</sup> Свечин А. А. Эволюция военного искусства. От древности до Наполеоновских войн. М.: Вече. 2017. 416 с.

*Shveytsariyaning har bir fuqarosi uyida barcha harbiy jihozlari va shaxsiy qurollarini saqlaydi hamda har yili harbiy yig‘inlarga chaqiriladi. Zaxirada bo‘lishga imkon bermaydigan yoshga yetganda, shveytsariyalik barcha harbiy jihozlarini, shu jumladan qurollarini topshiradi, biroq shaxsiy foydalanish uchun pompali miltiq oladi<sup>9</sup>.*

XVI asr boshlariga kelib, Yevropa davlatlarida markaziy hokimiyat mustahkamlanishi natijasida feodal qo‘sishnidan butunlay voz kechib, yollanma askarlardan iborat o‘z qo‘sishnini tuzishga kirishdilar. Yollanma askarlardan foydalanish armiyani tashkil etish, jihozlash, o‘qitish va ta’minalash xarajatlaridan qutulish imkonini berardi. Harbiy kuch ishlatalishni talab qiladigan muayyan vazifalarni hal etish uchun vaqtinchalik harbiy bo‘linmalarini yollash bilangina cheklanishardi. Yollanma armiyalarning jangovar qobiliyati hal qiluvchi darajada pul ta’mintoning miqdori va muntazamligiga bog‘liq edi, biroq tizimli kamchiliklar tufayli ularning jangovar qobiliyati yuqori emas edi. Yollanma askarning o‘zini-o‘zi ta’minalash (qurol-yarog‘, kiyim-kechak, oziq-ovqat bilan) vazifalarini bajarishi yollanma qo‘shtining nafaqat mol-mulk, balki ayollar va bolalar bilan ham ulkan karvon bilan birga yurushiga olib kelardi. Biroq, boshqacha misollar ham mavjud edi. Jumladan, Ispaniya armiyasi nafaqat turli millatlarning sarguzashtchilaridan, balki musulmonlarni yarim oroldan haydar chiqarish uchun urushda birlashgan o‘z aholisidan ham tashkil topgandi. Ispanlar Amerika qit’asidagi mustamlakalaridan yollanma armiyani yaxshi ta’minalashga imkon beradigan katta resurslarni olishardi. Ispaniya yollanma armiyasi qo‘sishlar harakati taktikasida, shu jumladan o‘qotar qurollarning paydo bo‘lishini hisobga olgan holda, muvaffaqiyatlarga erishdi. Ispaniya yollanma armiyasida birinchi marta karakol deb atalgan o‘qchilar safi paydo bo‘ldi, bu esa saflarni qayta tuzish orqali mushketlardan uzlusiz o‘t ochishni ta’minalash imkonini berdi.

*Izoh. Kreml polki namoyish etayotgan ba’zi rang-barang usullar o‘qotar qurollar bilan bajariladigan saflanish usullaridan kelib chiqqan, biroq bu usullar namoyish maqsadida emas, balki jangovar harakatlarni mashq qilish uchun qo‘llanilgan.*

Biroq Niderlandiyaning yollanma armiyani muvaffaqiyatli tashkil etishi yanada e’tiborga loyiq misol hisoblanadi. Bu muvaffaqiyatning negizida davlatning iqtisodiy imkoniyatlari hamda Rim harbiy san’atining mohir bilimdoni bo‘lgan shahzoda Moris Oranskiy singari yuqori ma’lumotli va g‘ayratli rahbarning mavjudligi yotardi. Dengizchilikdagi yutuqlari tufayli gollandlar XVII asrga kelib o‘z davlatlarini Yevropaning boy savdo markaziga aylantirdilar. Gollandiyaliklar uchun harbiy xizmat jozibador emas edi.

<sup>9</sup> Самая милитаризированная страна. Военное обозрение. 2013.

Armiya asosan yollangan nemislardan tashkil topgan bo‘lib, jangovar qobiliyati jihatidan Yevropada hukmronlik qilayotgan ispan armiyasi bilan mutlaqo taqqoslanmas edi. Moris Oranskiy harbiy xizmatchilarga pul mukofotlarini yil davomida muntazam va tizimli ravishda (har 10 kunda) to‘lashni yo‘lga qo‘yishga erishdi. Bu saf tayyorgarligini qayta tiklash, harbiy intizomni kuchaytirish, askarlarni istehkom qurish va boshqa muhandislik ishlariga jalb etish, yuqori malakali ofitserlar korpusini shakllantirish, taktik tayyorgarlikni isloh qilish va uning darajasini oshirish imkoniyatini yaratdi. Natijada Moris Oranskiy kichik Gollandiyada yollanma askarlardan iborat Yevropadagi eng kuchli armiyani tuzishga va mintaqada ispan hukmronligiga barham berishga muvaffaq bo‘ldi.

Keyinchalik, armiyani tuzish uchun yollanma askarlikdan foydalanish asta-sekin chaqiruv asosida to‘ldirishga o‘z o‘rnini bo‘shatib berdi, shu bilan birga jangovar tayyorgarlik usullari, jumladan safarbarlik zaxiralari ham rivojlantirildi. Yollanma qo‘shinlar harbiy qurilish nazariyasi va amaliyoti, taktika, strategiya va umuman harbiy san’atning rivojlanishida katta ijobjiy rol o‘ynadi. Davlatlarning mustahkamlanishi, mudofaa va xavfsizlik sohasining asosiy vazifalardan biriga aylanishi bilan harbiy xizmatga yollanma askarlarni jalb etishdan voz kechilishi va milliy harbiy an’analar hamda harbiy maktablarning shakllanishi qonuniy jarayon edi. Yevropada yollanma askarlik XIX asrdayoq barham topgan edi. Davlatlar o‘z mamlakatlari ichida ham (xavfsizlik organlari va ichki qo‘shinlar orqali), tashqi siyosatda ham (qurolli kuchlar vositasida) harbiy kuch ishlatish monopoliyasiga ega bo‘ldilar.

### **Yollanma askarlik rivojlanishining ikkinchi bosqichi va o‘ziga xos ayrim xususiyatlar**

Muntazam armiyalarning tashkil etilishi amalda XX asrning ikkinchi yarmiga kelib yollanma askarlar davlatlar uchun kerak bo‘lmay qolishiga olib keldi. Biroq, bu hodisa butunlay yo‘q bo‘lib ketmadi, balki qo‘shinlarni to‘ldirish usullaridan biriga - shartnomali xizmatga aylandi. Bundan tashqari, Sovuq urush tugagach, keng ko‘lamli harbiy to‘qnashuvlar xavfi kamaygan bir paytda, XXI asr boshlarida ko‘plab mamlakatlarda shartnomali asosda qo‘shinlarni to‘ldirish usuli asosiy bo‘lib qoldi. Garchi ba’zi davlatlar hamon chaqiruv tizimidan voz kechishni rejalashtirmayotgan bo‘lsa-da, odatda bunday yondashuv yo milliy an’analar, yoki davlatning harbiy xavfsizligini ta’minalash xususiyatlari bilan bog‘liq. Masalan, Norvegiya katta safarbarlik resurslariga muhtoj bo‘lmasa-da, chaqiruv tizimidan voz kechmaydi. Norvegiyaliklar uchun armiyada xizmat qilish nafaqat o‘zini to‘laqonli erkak sifatida anglash, balki jamiyatning to‘laqonli fuqarosi sifatida tan olinish va davlat xizmatida ko‘tarila olish imkoniyati uchun ham

zarurdir. Rossiya Federatsiyasida 1992-yil 7-mayda o‘z qurolli kuchlarini tashkil etish to‘g‘risidagi qaror qabul qilinishi bilan, shartnomalar va chaqiruv asosidagi aralash to‘ldirish tizimiga bosqichma-bosqich o‘tish haqida qaror qabul qilindi<sup>10</sup>. Geografik va demografik omillarni hisobga olgan holda, Rossiya uchun bunday to‘ldirish usuli eng maqbul hisoblanadi.

### **Yollanma askarlar rivojlanishining uchinchi bosqichidagi ba’zi xususiyatlari, AQShning roli**

Talab qilinmay qolgan bo‘lsa-da, yollanma askarlik hodisasi vaqtiga vaqt bilan aniq vaziyatlarda nafaqat XIX asrda, balki XX asrda ham namoyon bo‘ldi. Bu holat, ayniqsa, Birinchi va Ikkinci jahon urushlaridan so‘ng yaqqol ko‘zga tashlandi. Bu ko‘p jihatdan Birinchi jahon urushi tugagach, ayniqsa mag‘lubiyatga uchragan Germaniyada, ko‘plab sobiq harbiylarning ish topolmay qolishi bilan bog‘liq edi. “Ofitserlar korpusi keskin qisqartirildi. Biroq nemis ofitserlarining tan olingan harbiy mahorati dunyoning boshqa qismlarida keng qo‘llanildi. 1927-yilda Xitoy Respublikasi prezidenti generalissimus Chan Kayshi Gomindanning siyosiy yo‘nalishini o‘zgartirib, o‘z uyida tartib va tozalik o‘rnatish” shiori ostida kommunistlarga qarshi ochiq kurashga o‘tdi va shu bilan birga 60 nafar sovet harbiy maslahatchilaridan voz kechdi.

Ularning o‘rniga katta haq evaziga reyxsverning zaxiradagi ofitserlari yollandi”<sup>11</sup>.

Shu bilan birga, iste’fodagi nemis zobitlari Lotin Amerikasining bir qator mamlakatlari, shuningdek, Otaturk davridagi Turkiyaning harbiy qurilishida muhim rol o‘ynadi. Ikkinci jahon urushidagi navbatdagi mag‘lubiyatdan so‘ng fashistlar Germaniyasining omon qolgan ko‘plab ofitser va generallari aynan shu zamin asosida o‘z o‘rnini topdi.

Biroq bu misollarning barchasi yollanma askarlik amaliyotida ilgari uchramagan yangilikni aks ettirmaydi.

Yollanma askarlikning dastlabki sifat jihatidan yangi xususiyatlari Sovuq urush davrida mustamlakachilik tizimining yemirilishi boshlanishi bilan namoyon bo‘ldi, deb hisoblash mumkin. Yollanma askarlarga bo‘lgan ehtiyoj ham ichki, ham tashqi omillar tufayli paydo bo‘ldi, ammo bu ikki omil o‘zaro bog‘liq edi. Bu aloqadorlikning namoyon bo‘lishi Kongo voqealari misolida yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Sobiq Belgiya Kongosi mustaqil deb e’lon qilingach, ichki vaziyatning beqarorlashuvi, oq tanli aholining qirg‘in qilinishi va ularni himoya qilish uchun Belgiya qurolli kuchlari bo‘linmalarining kiritilishi mamlakatda bo‘linishga olib keldi.

<sup>10</sup> Указ Президента Российской Федерации от августа 1992 года.

<sup>11</sup> Коновалов И.П. Солдаты удачи и воины корпораций. История современного наемничества.

Sotsialistik yo‘nalishga moyil bo‘lgan Patris Lumumba boshchiligidagi markaziy hukumatdan birinchi bo‘lib mamlakatning eng boy Katanga viloyatini boshqargan Moiz Chombe mustaqillik e’lon qildi. Uning ortidan olmosga boy Janubiy Kasai viloyati ham mustaqillik e’lon qildi. Katangadagi mis va uran konlarining boy zaxiralarini hisobga olgan holda, Chombe xizmatiga yollanma askarlar otryadlari keldi. Ular orasida mashhur “yollanma askarlar qiroli” Bob Dinar ham bor edi. U viloyatlarning ko‘p sonli oq tanli aholisini mahalliy qora tanlilar to‘dalaridan himoya qilishda ham muhim rol o‘ynadi. Uning otryadlari mafkuraviy sabablar - sotsialistik g‘oyalarni rad etish bilan ham harakatlanardi. Keyinchalik ularga Kuba "kontraslari" otryadlari qo‘shilgani bejiz emas edi. Kongoda boshlangan fuqarolar urushi BMT Xavfsizlik Kengashini aralashishga majbur qildi. BMTning keng ko‘lamli tinchlikparvarlik operatsiyasi asosan Qo‘shma Shtatlar tomonidan moddiy jihatdan ta’minlandi. Dastlab bu operatsiya Kongo bosh vaziri Patris Lumumba tomonidan ijobjiy qabul qilindi. U BMT tinchlikparvar kuchlari ayirmachilarga qarshi kurashda yordam berishiga umid qilgan edi. Ammo BMT tinchlikparvar kuchlarining vakolati sotsialistik taraqqiyot yo‘lini tanlashga moyil bo‘lgan yetakchi boshchiligidagi markaziy hukumatga yordam berish emas, balki faqat tinchlikni tiklash vazifasi bilan cheklangan edi. Patris Lumumba SSSRdan yordam so‘rab murojaat qildi va nafaqat qurolyarog‘ va harbiy texnika, balki harbiy maslahatchilar ko‘rinishida ham yordam oldi<sup>12</sup>.

**Xulosa.** Yollanma qo‘sishinlar o‘z rivojlanishining dastlabki bosqichida (XIX asr boshlarigacha) harbiy san’atning (taktikadan strategiyagacha) taraqqiyotida, harbiy qurilish nazariyasi va amaliyotida, professional harbiy kadrlarni shakllantirish va tayyorlash tizimida muhim rol o‘ynadi, hamda zamonaviy qurolli kuchlarni shartnomaga asosida to‘ldirish tizimini yaratishga asos bo‘ldi. Yollanma qo‘sishinlarga bo‘lgan talab Yevropa davlatlari shakllanishining ilk davrida, ya’ni markaziy hokimiyat muntazam armiyani ta’minalash uchun yetarli mablag‘ga ega bo‘lmagan paytda eng yuqori darajada edi.

Ikkinci bosqichda (XX asrning ikkinchi yarmigacha) yollanma askarlik eng kam talab qilinadigan bo‘ldi. Bu davrda davlatlar muntazam qurolli kuchlarni saqlash imkoniyatiga ega edilar. Biroq XX asrning ikkinchi yarmida mustamlakachilik tizimining parchalanishi boshlanishi bilan yollanma askarlarga ma’lum ehtiyoj paydo bo‘ldi. Mustamlakachilik qaramligidan ozod bo‘layotgan davlatlarni o‘z ta’sir doirasiga jalb qilish uchun kurashda G‘arb mamlakatlari yollanma askarlardan foydalanishga majbur bo‘ldilar.

<sup>12</sup> И. Евдокимов. Демократическая Республика Конго: «сердце Африки» – страна Патриса Лумумбы. К 55-летию установления дипломатических отношений. Международная жизнь.

Sotsialistik mamlakatlar esa o‘zlarining muntazam qurolli kuchlaridan zarur bo‘lgan barcha hajmda foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lganlari sababli yollanma askarlardan foydalanishga ehtiyoj sezmadilar.

Uchinchi bosqichda (XX asr oxiri - XXI asr boshlari) xususiy harbiy kompaniyalar shaklida yollanishning qayta tiklanish tendensiyasi ko‘zga tashlanadi. Ushbu bosqichda XHKlar harbiy faoliyatning keng ko‘lamini qamrab oladi, ammo o‘tmishdagidan farqli o‘laroq, jangovar harakatlarda ishtirok etish oxirgi o‘rinda turadi.

Xulosa so’ngida dastlabki davrlarda ko’plab mamlakatlar yollanma askar va qo’shinkarga ehtiyoj sezganlar va qaysidur ma’noda bu davlatlarning rivojlanishiga hissa qo’shgan. Lekin hozirgi huquq ustuvor bo‘lgan davrda yollanish jinoyati xalqaro hamjamiyatda davlatlar o’rtasidagi diplomatic munosabatlarga putur yetkazibgina qolmay, ko’plab jamiyatdagi qatlamlar orasida og’ir asoratlar qoldirmoqda.

## REFERENCES

1. Энциклопедический словарь Брокгауза и Эфона.
2. Алибаева Г.А. История наемничества: криминологический аспект. Вестник Астраханского государственного технического университета, 2007.
3. Свечин А.А. Эволюция военного искусства. От древности до Наполеоновских войн. М.: Вече. 2017.
4. Шерр О. С. Частные военные компании как инструмент внешней политики США // Россия и Америка в XXI веке. 2018. Выпуск 4
5. Самая милитаризированная страна. Военное обозрение. 2013.
6. Коновалов И.П. Солдаты удачи и воины корпораций. История современного наемничества.
7. Кубинцы на фронтах холодной войны. Где и зачем воевали солдаты Фиделя Кастро. Военное обозрение, 19.06.2018.
8. Protocol Additional to the Geneva Conventions of 12 August 1949, and relating to the Protection of Victims of International Armed Conflicts
9. International Convention against the Recruitment, Use, Financing and Training of Mercenaries, 4 December 1989, UN Doc.
10. Денис Кириллов. Частные военные компании. Интервью с Г.Лукьяновым. Вести. Экономика. 4.01.2019.

11. И.П. Коновалов, О.В. Валецкий. «Эволюция частных военных компаний» - Центр стратегической конъюнктуры, Пушкино.
12. Е. Лосев Израильские ЧВК, Альманах Искусство войны, 22.03.2012г
13. Percy, S. (2007). *Mercenaries: The History of a Norm in International Relations*. Oxford University Press
14. UN Working Group on the Use of Mercenaries (2018). Report to the Human Rights Council, UN Doc.
15. Montreux Document on Pertinent International Legal Obligations and Good Practices for States related to Operations of Private Military and Security Companies during Armed Conflict (2008), Part II.